



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 147-153 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### KAPITAL BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURSLAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Xasanov Xayrullo Nasrullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

[khayrullo.khasanov@bk.ru](mailto:khayrullo.khasanov@bk.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada kapital bozorining iqtisodiy mazmuni va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati bayon etilgan. Kapital bozorining rivojlanish dinamikasi, kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning ilmiy jihatlariga doir olimlarning ilmiy xulosalari o'rganilgan. Kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va moliyaviy resurslar jalb qilishning amaliy jihatlari tadqiq etilgan. O'zbekistonda kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning uslubiy jihatlarini takomillashtirishga doir takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** kapital bozori, aksiya, korporativ obligatsiya, moliyaviy instrument, qayta moliyalashtirish stavkasi, devalvatsiya, valyuta riski.

**Аннотация:** в научной статье описывается экономическая сущность рынка капитала и его роль в развитии национальной экономики. Изучены научные выводы ученых о развитии рынка капитала и научные аспекты привлечения финансовых ресурсов с рынка капитала. Изучены основные направления развития рынка капитала и практические аспекты привлечения финансовых ресурсов. Сформулированы предложения по совершенствованию методических аспектов привлечения финансовых ресурсов с рынка капитала в Узбекистане.

**Кл.чевые слова:** рынок капитала, акция, корпоративная облигация, финансовый инструмент, ставка рефинансирования, девальвация, валютный риск.

**Annotation:** The scientific article describes the economic essence of the capital market and its role in the development of the national economy. The scientific conclusions of scientists on the development of the capital market and the scientific aspects of attracting financial resources from the capital market are studied. The main directions of the development of the capital market and the practical aspects of attracting financial resources are studied. Proposals for improving the methodological aspects of attracting financial resources from the capital market in Uzbekistan are formulated.

**Key words:** capital market, stock, corporate bond, financial instrument, refinancing rate, devaluation, currency risk.

#### Kirish

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanib borar ekan, tarmoq va sohalarda faoliyat yuritayotgan korporativ tuzilmalar tomonidan moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj oshib boraveradi. Ohirgi yetti yillik davrni oladigan bo'lsak, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korporativ tuzilmalar tomonidan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini oshib borayotganligi ular tomonidan kapital jalb qilishning zamonaviy

instrumentlarni joriy etish zaruratini vujudga keltirmoqda. Qolaversa, yirik aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish borasida amalga oshirilgan islohotlar qolgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan ham bu boradagi ishlarni jadallashtirish va mazkur tajribani o'z amaliyotiga tadbiq etishni taqozo etmoqda. Yangi O'zbekistonning kapital bozorini isloh qilishga doir qabul qilinayotgan qonunchilik xujjatlarini amaliyotga samarali tashkil etilishi yuqoridagi vazifalarning jadallashuviga xizmat qilishi tabiiy, deb hisoblaymiz.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida "Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadida mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarini va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan fond birjasi orqali xususiyashtirish" [1] vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida aytib o'tish joizki, yaratib berilayotgan imkoniyatlar va sharoitlardan foydalanishda ko'plab aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan kamchiliklar mavjud. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining soni 630 dan ortiqni tashkil etsada, xalqaro fond bozorida ishtirok etayotgan aksiyadorlik jamiyatlari soni atigi 5 tani tashkil etmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz fond bozorida ushbu aksiyadorlik jamiyatlarining 18,0 foizginasi listingdan ro'yhatdan o'tkan bo'lib o'zining qimmatli qog'ozlari bilan savdolarida ishtirok etib kelmoqda. Shuning uchun aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokini ta'minlash, xalqaro fond bozorlarining teng huquqli a'zosiga aylanishi borasida sa'y harakatlarni amalga oshirilishi dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish asosida milliy amaliyotda foydalanishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

### **Mavzuga doir adabiyotlar sharxi**

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni, kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning asosiy jihatlari doir mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Kapital bozori deyilganda jamg'armalar va investitsiyalarni yetkazib beruvchilar va ularga ehtiyoji bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida yo'naltiriladigan maxsus bozor tushuniladi. Mazkur bozorda ishtirok etuvchi subyektlar institutsional investorlar, moliyaviy institutlar, kompaniya, korporatsiyalar va hukumatlar bo'lishi mumkin. Kapital bozori yirik kompaniyalar uchun moliyaviy resurslar bilan ta'minlovchi asosiy institut bo'lish bilan birga, ular uchun moliyaviy daromad keltiruvchi asosiy manba sifatida ham qaraladi [2]. Jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi joriy bosqichida kapital bozori yirik kompaniya va korporatsiyalar uchun asosiy moliyaviy ta'minot manbalarini shakllantirish uchun mahsus "maydon" hisoblanadi. Turli moliyaviy instrumentlar, derivativlar, yevroobligatsiyalar, qimmatbaho metallar, kriptoaaktivlar bugungi kapital bozorida foydalanilayotgan aktivlar hisoblanadi. Nazariy nuqtai nazardan kapital bozori ikkita kategoriyaga bo'linadi: birlamchi va ikkilamchi bozorlar [3]. Kapital bozori atamasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, mazkur bozorda institutsional subyektlar yoki kompaniyalar turli moliyaviy instrumentlar savdosi bilan shug'ullanadi, shuningdek

savdolar bevosita uchrashuv (B2B) yoki raqamli texnologiyalar shaklida amalga oshiriladi. Bu bozorlar fond bozori, obligatsiyalar bozori, valyuta va valyuta bozorlarini (forex) o'z ichiga olishi mumkin. Aksariyat bozorlar Nyu-York, London, Singapur va Gonkong kabi yirik moliya markazlarida jamlangan [4].

Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham kapital bozori orqali moliyaviy resurslar jalb qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmogda. Professor O.Xamdamovning fikriga ko'ra, mamlakatimizda xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali aksiyadorlik jamiyatlarini qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda xalqaro suveren kredit reytingini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmogda. Aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro moliya bozori ishtirokchilariga aylanishi ularning xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarini oshirish bilan birga ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini yanada oshiradi [5]. Xalqaro moliya institutlari yirik moliyaviy resurslar va ahamiyatli vakolatlariga ega bo'lib hozirgi kunda bu tashkilotlar jahon moliya-kredit munosabatlarining asosini tashkil etib kelmogda. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik mamlakat uchun nafaqat yirik mablag'larni iqtisodiyotga jalb qilish imkonini beradi, balki jahon moliyaviy munosabatlarida o'z o'rnini va ovozigaga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi [6]. Qimmatli qog'ozlar bozori mamlakatning muhim makroiqtisodiy funksiyasini bajarib, investitsion resurslarni daromadliroq va istiqbolli tarmoqlarga qayta taqsimlaydi, shu bilan bir qatorda aksiyadorlik jamiyatlari uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishning eng maqbul yo'li hisoblanadi [7].

M.I.Kasimova tomonidan taklif etilgan kapital bozorining ta'rifiga qo'shilgan holda, "kapital bozori – iqtisodiy faoliyat subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar bo'lib, bu bir tomondan, talabni va boshqa tomondan – investitsiya mahsulotlariga bo'lgan taklifni yuzaga keltiradi" deyish mumkin. Shu munosabat bilan, M.I.Kasimova qonuniy tarzda kapital bozorlarini investitsion tovarlarga, ya'ni pul mablag'lariga, qimmatli qog'ozlar va boshqa qiymat shakllariga "bog'laydi", bularning maqsadi esa foyda olishdan iborat hisoblanadi [8]. R.R.Rubsovning fikriga ko'ra, "Moliya bozori - pul kapitalining harakatlanishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar va institutlar majmuidir" [9].

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash mumkinki, kapital bozori yuridik va jismoniy shaxslar uchun moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash maqsadida investitsiyalar va fondlarni taqsimlovchi bozor hisoblanadi. Kapital bozori iqtisodiyotda bo'sh turgan moliyaviy resurslarni turli subyektlar o'rtasida qayta taqsimlash asosida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.


### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada ilmiy tadqiq etish, umumlashtirish, guruhlashtirish, taqqoslama usullar, iqtisodiy tahlil, statistika, ekspert baholash, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv va boshqa usullardan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Xalqaro maydonda ro'y berayotgan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar ohir oqibat xalqaro kapital bozori infratuzilmasini o'zgarishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmogda. Mazkur vaziyatda iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlat uchun kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishda asosiy foiz stavkalarining oshib borayotganligi kompaniya va

korporatsiyalar tomonidan qo'shilgan qiymat bo'yicha yuqori samaradorlikka erishishni talab etmoqda. Ta'kidlash kerakki, aksiyadorlik kompaniyalari tomonidan kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish jarayoni turli komponentlarni o'z ichiga olib, ularni jalb qilishga doir turlicha uslubiy yondashuvlar mavjud. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan moliyaviy resurslar jalb qilish jarayonida kapital bozorining moliyaviy resurslarini transformatsiyalash jarayoni yuz berib, mazkur jarayonda kompaniya tomonidan kapital bozorida investiyalarni amalga oshirishdan boshlab moliyaviy instrumentlarni joylashtirishgacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bozordagi ikkinchi tomon ya'ni emitentning kapital bozoridan moliyaviy resurslarini jalb qilishga doir qarorlarni qabul qilishdan boshlab emissiya parametrlari prospektigacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Kapital bozorida moliyaviy resurslarini transformatsiyalash jarayoni ham emitent ham investor ham davlat uchun birday ahamiyatli deb o'ylaymiz. Chunki iqtisodiyotda kapital bozorini rivojlantirishga doir muammolarni aniqlashda mazkur transformatsiya jarayonidagi ro'y berayotgan o'zgarishlar tahlil qilinadi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi yoki vazifalar belgilanadi (1-rasm).



1-rasm. Kapital bozorining moliyaviy resurslarni transformatsiyalash jarayoni


Kapital bozorining segmenti sifatida qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan xususiyatga va birjalar shaklida tashkil etilgan xalqaro maydonchalarga ega bo'lgani sababli, kapital bozorining xususiyatlari va segmentlarini tahlil qilishni, bizning fikrimizcha, ushbu bozordan boshlash kerak. Bundan tashqari, korporativ qimmatli qog'ozlar bozori hozirgi bosqichda faoliyat tamoyillari, me'yoriy-huquqiy tartibga solish, emitentlarga qo'yiladigan talablar, bozor ishtirokchilarining korporativ axloqiga ko'ra xalqaro bozor xususiyatlariga yaqin tarzda tashkil etilgan.

Xalqaro kapital bozori va unda amal qiladigan moliyaviy instrumentlarga ihtisoslashuv xos bo'lsada, so'nggi yillarda birjalarning o'zaro qo'shilishi va qo'shib

olinishi natijasida ularning yiriklashuvi va xalqaro platformalarning universallashtirishiga olib keldi, bu bilan bozor ishtirokchilarining moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi tranzaksion xarajatlar va risklarini minimallashtirishga erishildi. "Toshkent" Respublika fond birjasining nafaqat yetakchi fond birjalaridan balki Osiyo mintaqasidagi aksariyat fond birjalaridan sezilarli darajada orqada qolishi milliy iqtisodiyotda kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyatini chegaralaydi deb hisoblaymiz. Agar raqamlarda ko'radigan bo'lsak, 2024-yilning 9 oyi davomida "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan umumiy qiymati 2,44 trln. so'mlik 358 510 ta bitim tuzildi. Bitimlar obyektlari 99 ta emitentning 15,66 mlrd dona qimmatli qog'ozlari bo'ldi. Bitimlar hajmining eng yuqori ko'rsatkichi 16 - sentabrda amalga oshirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich bir savdo kunida 1,89 trln. so'mdan oshdi; minimal ko'rsatkich esa 8-avgustda qayd etilib, bitimlar hajmi 45,66 mln. so'mni tashkil etdi. Bitimlar soni bo'yicha eng ko'p bitimlar 19-iyulga to'g'ri kelib, o'shanda bir savdo kunida 3 894 ta bitim qayd etildi. Barcha platformalarda tuzilgan o'rtacha kunlik bitimlar soni 1 938 taga, o'rtacha kunlik bitimlar hajmi esa 13,18 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Tan olish kerak, ohirgi yetti yillik dinamikani ko'radiga bo'lsak, bozordagi savdo hajmi 5 barobardan oshgan. Biroq boshqa MDH davlatlari bilan solishtirilgan bo'lsak ushbu ko'rsatkich YaIM ga nisbatan ancha past ekanligini ta'kidlashimiz mumkin.

Moliyaviy bozorlarning globallashtirish va xalqaro miqyosda o'sib borishi, moliyaviy va sanoat kapitalining yuqori darajadagi integratsiyasiga bo'lgan dunyo miqyosidagi tendensiya, shuningdek, banklar tomonidan xorijiy investorlar nazarida an'anaviy ravishda yuqori mavqega ega bo'lish aksiyadorlik jamiyatlarining ehtiyojlarini qondirish uchun investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha faoliyatini jadallashtirishga ta'sir etuvchi asosiy tashqi omillar qatoriga kiradi. Milliy fond bozorining innovatsion rivojlanish ehtiyojlarini investitsion qo'llab-quvvatlash bo'yicha banklarning faoliyatini kuchaytirishga ta'sir etuvchi ichki omillarning butun majmuasini ikki yirik guruhga ajratish lozim. Ulardan birinchisi asosiy vositalarning yuqori darajadagi eskirishi, mahsulotlarning potensial bozorini marketing tadqiqotlarining past darajasi, ko'plab aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion rivojlanish strategiyalarining yo'qligi, shuningdek menejerlarning professionalligi va milliy investitsiya va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Fikrimizcha, ayrim yirik aksiyadorlik jamiyatlari uzoq muddatli kreditlar, lizing uskunalar yoki ularning qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ko'rinishidagi zarur hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish borasida mustaqil qaror qabul qila olmaydilar. Moliyaviy institutlarning barcha toifalaridan faqat tijorat banklari kapitallashtirish darajasi yuqori, ularning faoliyati yuqori darajada diversifikatsiya qilinganligi, hamda zarur bo'lgan inson va axborot resurslari mavjudligi sababli emitent kompaniyalarga yangilash dasturlarini moliyalashtirishda amaliy yordam ko'rsatishga imkoniyatli hisoblanadi. Banklarning mamlakat fond bozorini institutsional mustahkamlash uchun lokomotiv rolidagi ishtirokini kuchayishiga olib keladigan omillarning ikkinchi guruhi, bank sektorining sanoat va moliyaviy kapitalni yanada integratsiyalashtirishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganligi bilan bog'liq bo'lib, ushbu omillarsiz O'zbekiston iqtisodiyoti xalqaro miqyosida munosib o'rin egallashi sekinlashishi mumkin deb hisoblaymiz. Bizningcha, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan moliyaviy resurslarga bo'lgan talab va ehtiyojdan kelib chiqqan holda muvozanatlikni ta'minlash maqsadida quyidagi muhim yo'nalishlar

bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirish kerak (2-rasm). Kapital bozorida moliyaviy resurslarni mavjud talab va taklif omillaridan kelib chiqqan holda taqsimlash, korporativ tuzilmalar tomonidan moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni qoplash bilan birga iqtisodiyotda qo'shilgan qiymatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



**2-rasm. Kapital bozorida moliyaviy resurslarga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi rivojlanish yo'nalishlari.**

### Xulosa va takliflar

Bugungi kunda milliy amaliyotda kapital bozorini rivojlantirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birga aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ta'minot bilan bog'liq muammolarini hal qilishda muhim o'rin tutadi. Albatta bu borada keyingi yillarda qonunchilik xujjatlarini o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish, amaliyotdagi aniqlangan muammolarni bartaraf etishga doir ko'p ishlar amalga oshirildi va davom ettirilmoqda. Fikrimizcha, bunga qo'shimcha ravishda kapital bozorida yuqori rentabellikka ega bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini joylashtirish va erkin muomlada bo'lishini ta'minlash kerak. Shu bilan birga xorijiy valyutadagi moliyaviy instrumentlarni qimmatli qog'ozlar bozorida savdolarda ishtirokini ta'minlash kerak, chunki keyingi yillarda milliy valyutani xorijiy valyutaga nisbatan devalvatsiya darajasini oshib borayotganligi sharoitida investorlar tomonidan valyuta risklari bilan bog'liq yo'qotishlarni oldini olishda muhim sanaladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari axborotlar assimetriyasi bilan bog'liq muammolarni kamaytirish kapital bozorining rivojlanish tendensiyalariga doir ma'lumotlarni olish, korporativ axborot yagona portali bazasini yanada kengaytirish uchun kapital bozori ishtirokchilarining moliyaviy-investitsion faoliyat natijalari, xalqaro standartlar bo'yicha moliyaviy hisobot shakllari va istiqbolli investitsion loyihalar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini kiritish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim. Bu esa investorlar, aksiyadorlar uchun qo'shimcha axborotlar olish imkoniyatini berish bilan birga aksiyadorlik



jamiyatlarining moliyaviy-investitsion faoliyatini takomillashtirishga doir ilmiy-fundamental tadqiqotlarni oshirishga xizmat qiladi.

Milliy kapital bozorini rivojlantirishning muhim omillaridan biri moliyaviy savodxonlik va qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasi hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, agar 2018 yilda qarz instrumentlari bozori hajmi 70 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2024 yilga kelib 1,5 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Biroq mazkur o'sish asosan tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda, ya'ni 99 foiz davlat obligatsiyalarining asosiy investori tijorat banklari hisoblanadi. Xalqaro amaliyot tajribalari singari mazkur segmentda riteylarlar, pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari yoki investitsion kompaniyalar mavjud emas. Bu esa mazkur yo'nalishda jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni.
  2. Joseba Martinez, Thomas Philippon, Markus Sihvonen, Does a currency union need a capital market union?. *Journal of International Economics*, Volume 139, 2022, 103675. ISSN 0022-1996,
  3. Miroslav Mateev, Tarek Nasr, Ahmad Sahyouni, Capital regulation, market power and bank risk-taking in the MENA region: New evidence for Islamic and conventional banks, *The Quarterly Review of Economics and Finance*, Volume 86, 2022, Pages 134-155, ISSN 1062-9769.
  4. Ran Chang, Angelica Gonzalez, Sergei Sarkissian, Jun Tu, Internal capital markets and predictability in complex ownership firms. *Journal of Corporate Finance*, Volume 74, 2022, 102219, ISSN 0929-1199.
  5. Xamdamov O.N. va boshqalar. Xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotining tahlili. *Iqtisod va moliya jurnali* 2020, 4(136).
  6. Jumayev I.B. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirisha xalqaro moliya institutlarining ahamiyati. *Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021*: 5.723
  7. Boyev B.J. Mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etishning amaldagi holati va uni takomillashtirish masalalari. *Iqtisod va moliya jurnali* 2021, 5(141).
  8. Касимова М.И. Рынок капиталов: сущность, содержание и его место в системе рыночных отношений//Фундаментальные исследования – 2016, с. 152-156.
  9. Рубцов Б.Б. Глобальные финансовые рынки: масштабы, структура, регулирование//Век глобализации.- 2011, №2 (8) - С.73-98.
- Frederics S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliadori. *Financial markets and institutions*. USA. Prentice Hall, 2012.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

